

## KICHIK MAKTAB YOSHI VA O'SMIRLIK DAVRIDA MEN KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI

<sup>1</sup>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o‘qituvchisi

<sup>2</sup> Esanboyev Turdimurod, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy  
universitetining Jizzax filiali talabasi

**Annotatsiya:** Erikson shaxsiyat rivojlanishi psixosotsiyal rivojlanishning sakkiz bosqichda sodir bo‘lishiga ishondi. “Men-kontseptsiya”ning bosqichma-bosqich rivojlanishining eng rivojlangan nazariyalaridan biri amerikalik psixolog Gordon Allport tomonidan taklif qilingan.

**Kalit so‘zlar:**shaxs, “Men” konsepsiysi, o‘smirlik, kichik maktab,inqiroz.

Rus psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqaqlash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blokskiy, B.G.Ananev singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug‘ullanuvchilar safi ortib bordi, shu bois yosh davrlarini tasniflash muammosi o‘zining kelib chiqishi, Ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi, Hozirgi vaqtda yosh davrlarini tabaqaqlash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning Ilmiy qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

L.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqaqlash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi;

1. Chaqaloqlik davri inqirozi.
2. Go‘daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha, bir yoshdagи inqiroz.
3. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagи inqiroz.
4. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagи inqiroz.
5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagи inqiroz.
6. Puberdat (jinsiy etilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, yoshdagи inqiroz.

L.S.Vigotskiy o‘zining yosh davrlarini tabaqaqlash nazariyasini ilmiy asoslab, ta’riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida Ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq, bu mulohazalarda ancha munozarali, bahodi o‘rinlar ham mavjud. Umuman L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqaqlash nazariyasi Ilmiy garixiy ahamiya-1ta ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to‘g‘risidagi mulohazali va olga surgan g‘oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

Men tushunchasi rivojlanishiga nazar solar ekanmiz, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Dastlab, chaqaloqlar o‘zlarini anglamaydilar. Keyinchalik tashqi va ichki muhitdagi turli omillar ta’sirida o‘zligini anglay boshlaydilar. Bu borada ko‘pgina psixologlar va nazariyotchilar turli yosh davrlarida shaxsiyatni rivojlantirish tushunchasini o‘rganib chiqdilar, ular orasida Gordon Allport va Erikson qarashlari ko‘pgina muhokamalarga sabab bo‘lgan. Erikson shaxsiyat rivojlanishi psixosotsiyal rivojlanishning sakkiz bosqichda sodir bo‘lishiga ishondi. “Men-kontseptsiya”ning bosqichma-bosqich rivojlanishining

eng rivojlangan nazariyalaridan biri amerikalik psixolog Gordon Allport tomonidan taklif qilingan. Bu bosqichlar shaxsning o‘ziga xos shaxsni shakllantirishga bo‘lgan psixologik ehtiyojlari va bu rivojlanishda ro‘l o‘ynaydigan ijtimoiy omillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu 8 bosqichdan 5 tasi ilk va mакtabgacha yoshdagi bolalar hayotida sodir bo‘ladi.

1-bosqich - bu o‘z tanasini his qilish . Chaqaloq o‘zini alohida shaxs sifatida anglamaydi, o‘zlarini boshqa narsalardan ajrata boshlaydilar. Shuning uchun u “meniki” va “meniki emas” o‘rtasidagi farqni ajratmaydi. Biroq, hayotning ilk yilida chaqaloqlar ichki sezgi organlaridan kelib chiqadigan ko‘plab his-tuy g‘ularni seza boshlaydilar.

2-bosqich - bu o‘zini o‘zi anglash hissi , ya’ni bola o‘zini ma’lum va eng muhim shaxs sifatida biladi. Bu esa “men”ning yaxlitligi va uzlusizligi ta’minlashning eng muhim boshlan g‘ich nuqtasi bolaning o‘z ismidir. 2-3 yoshga kelib o‘z ismini anglab olgan bola, uning rivojlanishida va tashqi olam bilan bo‘ladigan munosabatlaridagi barcha o‘zgarishlarga qaramasdan, o‘sha odam bo‘lib qolishini tushuna boshlaydi.

3-bosqich - (3-4 yosh) o‘z-o‘zini hurmat qilishni shakllanishi . Eng avvalo, o‘z-o‘zini hurmat qilish tuy g‘usi bolaning o‘zi biror ish bajarganda boshdan kechiradigan g‘urur tuy g‘usi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini hurmat qilish bolaning topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishiga bo g‘liq.

4-bosqich - chegaralarini kengaytirish. 4-5 yoshda bola faqatgina o‘zining jismoniy tanasiga emas, balki atrofdagi olamning muhim elementlariga, shu jumladan odamlarga ham ega ekanligini tushuna boshlaydi. Bu bosqichda bolalar “men” ning ma’nosini tushunishni o‘zlashtira boshlaydilar.

5-bosqichda, (5-6 yosh) bu yoshga kelib “men” obrazi shakllana boshlaydi. Bu bosqichda bola atrofidagi odamlarni, ota-onasi, qarindoshlari, va boshqa odamlarga qanday munosabatda bo‘lishini va undan nima kutishlarini, qanday bo‘lishini xohlashlarini o‘rganishni boshlaydigan vaqt. Shu davrga kelib bola “yaxshi” va “yomon” o‘rtasidagi tafovutni anglab boshlaydi.

6-bosqich (6-12 yosh) ongli ravishda oqilona o‘zini o‘zi boshqarish. O‘z-o‘zini shakllantirishning ushbu davri kuchli muvofiqlikni, axloqiy va ijtimoiy itoatkorlikni o‘zida namoyon qiladi.

7-bosqichda, o‘smirlilik davrida “men” tushunchasi, yaxlit “men” tuy g‘usi joy oladi. “Men-tushunchasi” rivojlanishining sakkizinch bosqichi insonning o‘zini o‘zi bilish va o‘zini o‘zi qadrlash kabi qobiliyatları shakllanishi bilan bog‘liq. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, shaxs sifatida shakllanishida tashqi muhit omillari ahamiyati katta. Lekin shu bilan birgalikda o‘savotgan bolaning irsiyati va individual rivojlanishi hamda shaxsiy salohiyatini ham hisobga olish o‘rinli. Agarda rivojlanish bosqichlariga nazar soladigan bo‘lsak, dastlabki “men” tushunchalari oilada shakllanishini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi bosqichlarda bu mustahkamlanib boradi. Bu esa ta’lim muassasalari bilan bo g‘liq, ayniqsa maktabgacha ta’lim alohida ahamiyatga egadir.

Rus tadqiqotchilarining ko‘pchiligi oilada ota-onaning bolalar munosabatlariga yoki juda keng, yoki bolaning psixik rivojlanishi umumiy nuqtayi nazardan juda tor manoda yondashadilar. Masalan, ular asab buzilishlari paydo bo‘lishi, ruhiy holatlarning namoyon bo‘lishi, himoya mexanizmlari shakllanishiga tasiri jihatlaridan o‘rganib chiqqan.

Ko‘plab psixologlar fikriga ko‘ra, inson shaxsidagi yetakchi sifatlarining shakllanishi va “Men” konsepsiyasi asoslarining yaratilishi aynan ontogenezning dastlabki 5-6 yilida ro‘y berad. O‘zini-o‘zi anglash masalalariga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili bizga o‘zgaruvchilarning kattagina qismi kichik ijtimoiyguruhsifatida hayot tarzini oilada aks ettiruvchilarni tashkil qiladi, deyishimizga imkon beradi. Tadqiqotchilar buni bolalarda “Men” konsepsiyasining shakllanishida ota-onalarning o‘zaro munosabatlari muhim biromil ekanligi bilan bog‘laydilar. Ota-onalarning bola bilan o‘zaro munosabati va uning o‘zini anglashi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, o‘zini boshqarish shakli sifatida, bola xulq-atvorini boshqarish usullari va ota-onsa munosabatlarini namoyon etuvchi model sifatida ochib beriladi.

Ilmiy adabiyotlardan olingen ma’lumotlarni umumlashtirgan holda bolaning o‘zini-o‘zi anglashi interiorizatsiya usuli bo‘yicha ota-onsa bilan muloqotning to‘rt xil turini ajratish mumkin.

1. O‘ziga munosabat yoki “Men” obrazini bevosita yoki bilvosita xulq-atvor orqali singdirish.

2. Xatti-harakat standartlari va da’volar, ijtimoiy kutishlar darajasining shakllanishi orqali bolaning o‘ziga munosabati shakllanishi.

3. Bola xulq-atvori ustidan nazorat, bunda bola tomonidan bir vaqtning o‘zida o‘zini-o‘zi nazorat qilish usullari va ko‘rsatkichlari o‘zlashtirib olinadi.

4. Bolaning o‘zini baholashi ko‘rinishini o‘zgartirishga qodir bola xulqini yo‘lga solmoq, bunda bolaga ota-onsa tomonidan o‘tkaziluvchi “Men” obrazi va o‘ziga munosabatining ijobiy va salbiy ma’noga ega bo‘lishi mumkinligi tabiiy, albatta.

Shu tariqa, bolada shakllanuvchi “Men” ijobiy obrazi ham atrofdagilarning salbiy baholashga duch kelganda o‘zgarishi mumkin, ya’ni uning barqarorligi bu bosqichda shak-shubhasiz emas va boshqalarning, birinchi navbatda, onaning munosabatiga bog‘liq bo‘ladi: ona esa o‘z navbatida, o‘ziga ijobiy munosabatda bo‘lishi lozim, chunki aks xolda u bola uchun namuna bo‘la olmaydi. Ona “Men”ini qo‘llab-quvvatlash bola “Men”ini shakllantirishni yengillashtiradi va bolaning ona bilan munosabatlari oiladagi uchlik munosabatlari bilan almashgan xoldagi rivojlanish bosqichidagina bola qatiy chegaralarga muhtojlik sezsa boshlaydi. Bu zarurat muhabbat va nafrat mojorosini ishlab chiqish va uning asosiy tendensiyalari bolaning otaga yo‘nalganlikka asoslanuvchi hamda bolaning onaga yo‘nalganlikka tayanuvchi tendensiyalari bilan bog‘liq.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. Рахматуллаева, П. М., & Махкамова, М. А. (2022). ЁШЛЯР ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА МОТИВАЦИЯНИНГ ЎРНИ ЁХУД УЛКАН

- МАҚСАДЛАР САРИ ДАСТЛАБКИ ҚАДАМ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 1), 160-163.
- 2..Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
3. Rahmatullayeva, M. (2021). XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4).
4. Abdulla, S., & Abduvakilovna, K. U. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 586-589.
- 5.Rahmatullayeva, M., Umida, K., & Gulnoza, R. (2023). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
6. Karakulova, U., Rashidova, G., & Raxmatullayeva, M. (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
7. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Xaydarqulov, H. (2023). O'QITUVCHI VA TALABALAR O 'RTASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
8. Rahmatullayeva, M., & Ahmedova, L. (2023). GO'DAKLIK DAVRI TO'G'RISIDA PEDAGOGIK ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
9. Rahmatullayeva, M. (2021). O 'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4).
10. Rahmatullayeva, M., & Karimova, N. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINING DOLZARB MUAMMOLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).
11. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Anvarova, S. (2023). OLIY O 'QUV YURTLARIDA BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNI KASBIY MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).
- 12.Rahmatullayeva, M., & Toshbekov, H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR VA UNI KORREKSIYALASH YO 'LLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).
- 13.Rahmatullayeva, M., & Toshbekov, H. (2023). PSIXOLOGNI PSIXOMETRIK JIHATIDAN TAYYORLASH TALABLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).

14. Rashidova, G., Raxmatullayeva, M., Saidov, S., & Egamqulova, S. (2023). CHARACTER, ABILITY, AND ACTION: THE UNITY OF HUMAN ACTIVITY. *Наука и инновация*, 1(10), 152-155.
15. Норбекова, Б., & Орокбоева, М. (2022). Sharq mutafakkirlarining oilada bolalar shaxsida etnopsixologik xususisyatlarni tarbiyalash haqidagi qarashlari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 440-442.
16. Umarov Baxriddin Mingboyevich, & Norbekova Barno Shavkatovna. (2022). TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA DARS JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK MEZONLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(1), 276–279. Retrieved from <https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/71>
17. Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O 'TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O 'SMIRLAR KELIB CHIQISHIGA TA'SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
18. Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. Общество и инновации. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
19. Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 658-662.
20. Norbekova, B. (2022). O'roqboyeva M. Maktabgacha ta 'limda psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 481-483.
21. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
22. Alibekov D. SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYa SISTEMY OBRAZOVANIYa //Jurnal muzyski i iskusstva. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
23. Farsakhanova, Dilafruz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI* (2020).
24. Alibekov, Davron. "Sharq mutafakkirlarining ta'lism-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzyski i iskusstva* 2.1 (2021).
25. Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSİYALARİNG AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7730>
26. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BERILADIGAN TA'LIM MAZMUNI. In E Conference Zone (pp. 22-25).

- 27.Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.
- 28.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
- 29.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA-OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
- 30.Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
- 31.Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O'ZINI-O'ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In E Conference Zone (pp. 11-16).
- 32.Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). PROFESSIONAL MOTIVATION AND ITS STRUCTURE IN THE MANAGEMENT PROCESS. In E Conference Zone (pp. 11-16).
- 33.Madina, A., & Lobar, R. (2023). HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 375-379.
- 34.Madina, A., & Donoxon, M. (2023). OILADA YOSHLARNI TOLERANT MADANIYATLI QILIB TARBIYALASH VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 353-358.
- 35.Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.
- 36.Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AHLOQIY JIHATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In E Conference Zone (pp. 6-12).
- 37.Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O'QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. In E Conference Zone (pp. 1-5).
- 38.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
- 39.Alibekov, D. (2023). INTERFAOL METODLARNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 162-167. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9136>